

**«INFORMATIKA VA AXBOROT TEXNOLOGIYALARI» FANINI O'QITISHDA
INTERFAOL METODLARNING O'RNI VA AHAMIYATI**

Abduqodirov Oybek Rustam o'g'li

Surxandaryo viloyati Qumqo'rg'on tumani 13-maktab informatika fani o'qituvchisi

Annotatsiya. *Ushbu maqolada informatika fanini o'qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish usullari haqida ma'lumot keltirilgan.*

Kalit so'zlar: *texnologiya, zamonaviy metodlar, interfaol usullar, didaktik tamoyillar.*

Keyingi vaqtarda pedagogik texnologiya masalasi mutaxassislar tomonidan alohida tadqiqot ob'yekti sifatida o'rganila boshlandi. Bunda pedagogik texnologiya ta'lim, o'qitish jarayoni maqsadiga va shaxs barkamolligiga erishtirishga yo'naltirilgan pedagogik faoliyat samardorligini oshirishning tizimlashtirilgan, loyihalashtirilgan vosita va usullari sifatida talqin qilinadi. Fanlarni o'qitish o'qituvchidan mantiqiy usullar asosida pedagogik texnologiyalardan foydalanishni talab etadi. Chunki fan asoslarini o'zlashtirish uchun talaba abstrakt tushuncha, (kategoriya)larning mazmun, mohiyatini teran anglab yetishi kerakligi, bunga esa o'qituvchi, eng avvalo, dars jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni mantiqiy usullardan mohirlik bilan foydalangani holda qo'llay bilishi orqali erishadi.

Zamonaviy pedagogik texnolgiyalar va interfaol usullar asosida o'qituvchining yangi bilimlarning o'quvchilar tomonidan muayyan o'quv topshiriq, masalalarni yechishi bo'yicha muammoviy vaziyatlarni tashkil qilishi va shu yo'nalishda o'quv jarayonini boshqarishi tamoyili yotadi.

Zamonaviy pedagogik texnolgiyalar va interfaol usullardan foydalanish o'quvchilarda fanga bo'lgan qiziqishini hosil qilishning zaruriy sharti hisoblanadi. Chunki mazkur usullar o'quvchilarning diqqatini qo'yilgan muammolarning mohiyat-ahamiyatini anglab olishga va ularning yechimi ustida mustaqil, tanqidiy muhokama yuritishga yo'naltiradi.

Zamonaviy pedagogik texnolgiyalaridan foydalanish uchun bir qator interaktiv usullardan foydalanish mumkin. Bu usullar qo'yilgan muammoning yechimini topishga qaratilgan bo'lib, bunda mantiqiy usullar, xususan, tushunchani ta'riflash va bo'lish, umumlashtirish va chegaralash, savollar tuzish, baxs va boshqalar nazariy- metodologik mavqeini egallaydi.

Pedagogik texnologiyalardan biror bir fanni o'qitish jarayonida foydalanish o'qituvchidan informatika va axborot texnologiyalari fani asoslarini yaxshi bilishni, uning qonun-qoidalari va usullarini amaliyatda qo'llay bilish malakasiga ega bo'lishini talab etadi.

Informatika va axborot texnologiyalari fani didaktikasi va o'qitish metodikasida asosiy o'rnlardan yana birini o'qitish usullari egallaydi.

O'qitish usuli (metodi) (grekcha *metodos* - biror narsaga yul so'zidan) - bu ta'lim va tarbiya vositasi sifatidagi o'qitish maqsadlariga erishishga yo'naltirilgan o'qituvchi va o'quvchining bir-biri bilan bog'langan faoliyatining tartiblangan usullaridir.

O'qitish metodlarining muammosini qisqacha "qanday o'qitish kerak?" degan savol yordamida ifoda qilish mumkin. Lekin shuni e'tirof etish lozimki, ushbu savolga javob olish uchun "Nima uchun o'qitish kerak?", "Nimalarni o'qitish kerak?" va "Kinilarni o'qitish kerak?" kabi savollar bo'yicha yetarlicha axborotga ega bo'lish kerak. Ana shundagina o'qitish

maqsadi va mazmuniga, o'quvchilarning fikrlash faoliyati darajasiga to'liq javob bera oladigan o'qitish metodlarini tanlash masalasi xal etilishi mumkin.

O'qitishning maqsadi va vazifalari o'qitish metodini yagona ravishda aniqlamaydi. Ma'lum bir mazmun bir necha metod bilan o'rganilishi mumkin. Bunda albatta xar bir metod yordamida o'qitish maqsadlariga erishiladi.

O'qitish metodlari ko'p qirralidir. Shu sababli ham ularni ko'plab tasniflari mavjuddir. Bu tasniflarda metodlar bir yoki bir nechta belgilar bo'yicha jamlanadi.

Ma'lumki, "Informatika va axborot texnologiyalari" o'quv predmetining asosiy vazifasi o'quvchilarni zamonaviy axborot texnologiyalarining ba'zi bir umumiyligi g'oyalari bilan tanishtirish, axborot texnologiyalarining amaliyotdagi tatbiqini va kompyuterlarning zamonaviy hayotdagi ro'lini ochib berishdan iborat. Lekin, didaktik tamoyillarni xisobga olgan holda, o'quvchilarga nafaqat faktlarning qat'iy ilmiy bayonini berish, balki o'qitishning turli qiziqarli metodlarini ham qo'llish lozim.

Masalan, ko'pchilikka ma'lum va ommabop bo'lgan krossvord o'yini bolalarda qiziqish uyg'otishi tabiiydir. Krossvord ko'rinishidagi so'rov shakli o'quvchilar uchun har doim qiziqarli va o'ziga tortadigan metoddir.

"Kadrlar tayyorlash milliy dastri"da o'sib kelayotgan avlodni mustaqil fikrlaydigan qilib tarbiyalash vazifasi qo'yilgan. Ushbu masalani hal etilishi ko'p jihatdan o'qitishning interfaol metodlarini qo'llishga ham bog'liq.

Avvalo "**interfaol (interaktiv)**" tushunchani aniqlashtirib olaylik. "Interaktiv" degan so'z inglizcha "**interact**" so'zidan kelib chiqqan. "Inter" - o'zaro, "act" - ish ko'rmoq, ishlamoq degan ma'nolarni anglatadi. Demak interaktiv deganda o'zaro ish ko'rish, faoliyat ko'rsatish yoki suxbat bilan yoki tartibda kim bilandir (inson bilan) diolog (mulokot) xolatida bo'lish tushiniladi. Shunday kilib, interfaol o'qitish - bu, avvalambor muloqotili o'qitish bo'lib, jarayonning borishida o'qituvchi va o'quvchi orasida o'zaro ta'sir amalgalash oshiriladi.

Interfaol o'qitishning mohiyati o'quv jarayonini shunday tashkil etadiki unda barcha o'quvchilar bilish jarayoniga jalb qilingan bo'lib, erkin fikrlash, tahlil qilish va mantiqiy fikr yuritish imkoniyatlariga ega bo'ladilar.

Darslardagi interfaol faoliyat o'zaro tushunishga, hamkorlikda faoliyat yuritishga, umumiyligi, lekin xar bir ishtirokchi uchun ahamiyatli masalalarni birgalikda yechishga olib keladigan diologli aloqani tashkil etish va rivojlantirishni ko'zda tutadi. Interfaol usul bitta so'zga chiquvchining, shuningdek bitta fikrning boshqa fikrlar ustidan dominantlik qilishligini chiqarib tashlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. "Ta'lif to'g'risida"gi qonun // Xalq ta'limi. 1997. №5. S.4-16.
2. O'zbekiston Respublikasining "Axborotlashtirish to'g'risida"gi qonuni. "Xalq so'zi". 11-fevral, 2004.
3. "Axborot texnologiyalari sohasida kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori. "Xalq so'zi" gazetasi, 2005, 3-iyun.
4. "2001-2005 yillarda kompyuter va axborot texnologiyalarini rivojlantirish, "Internet"ning Xalqaro axborot tizimlariga keng kirib borishini ta'minlash dasturini ishlab

5 MAY / 2023 YIL / 29 – SON

chiqishni tashkil etish chora- tadbirlari to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining qarori. “Xalq so‘zi” 24- may, 2001.